

**MODERN APPROACHES TO TEACHING NATIVE AND FOREIGN LANGUAGES  
AND ISSUES OF INTERCULTURAL COMMUNICATION****Norbayev Asadbek Ilxom ugli**

Student of the “Tourism” Faculty, majoring in Tourism and Hospitality, Tashkent State University of Economics.

**Raimova Roxila Sherali kizi**Student of the “Tourism” Faculty, majoring in Marketing, Tashkent State University of Economics.  
E-mail: raimovarohila08@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ona tili va xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari va madaniyatlararo muloqot masalalarini tahlil qilishga, ularning usullari bilan tanishishga bag‘ishlangan. Unda ko‘rishimiz mumkinki u til o‘rganishdagi turli yondashuvlar, metodlar, uslublar va tamoyillarni o‘z ichiga oladi va o‘rganadi. Bunda O‘zbekiston amaliyotida keng tarqalgan yondashuvlarni ya‘ni kommunikativ, kompetensiyaviy, CLIL, task-based, raqamli ta‘lim vositalari va inklyuziv metodlarni tahlil qiladi. Maqolada O‘zbekistonda joriy etilayotgan ba‘zi islohotlar ya‘ni maktab va oliy ta‘limda xorijiy tillar bo‘yicha o‘qituvchilarning qayta tayyorlanishi imkon yaratish, ixtisoslashgan maktablarda chet tili ustozlardan sifatli ta‘lim olish va milliy raqamli ta‘lim platformalarining roli ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Kommunikativ tillarni o‘rgatish (CLT), kontentga asoslangan yo‘riqnomaga (CBI), multikulturalizm, mazmun va tilni birlashtirgan ta‘lim (CLIL), raqamli ta‘lim vositalari va inklyuziv metodlar, kompetensiyaviy, task-based.

**Abstract.** This article is devoted to the analysis of modern approaches to teaching native and foreign languages and issues of intercultural communication, as well as to familiarization with their methods. It can be seen that it includes and studies various approaches, methods, styles and principles in language learning. In this, it analyzes the approaches that are widespread in the practice of Uzbekistan, namely communicative, competency-based, CLIL, task-based, digital educational tools and inclusive methods. The article considers some of the reforms being implemented in Uzbekistan, namely, the retraining of foreign language teachers in school and higher education, the provision of quality education from foreign language teachers in specialized schools, and the role of national digital educational platforms.

**Keywords:** Communicative Language Teaching (CLT), content-based instruction (CBI), multiculturalism, content and language integrated learning (CLIL), digital learning tools and inclusive methods, competency-based, task-based.

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу современных подходов к преподаванию родного и иностранных языков, вопросам межкультурной коммуникации, а также ознакомлению с их методами. В статье рассматриваются и изучаются различные подходы,

методы, стили и принципы обучения языкам. В статье анализируются подходы, распространённые в практике Узбекистана, а именно: коммуникативный, компетентностный, CLIL, основанный на задачах, цифровые образовательные инструменты и инклюзивные методы. В статье рассматриваются некоторые реформы, реализуемые в Узбекистане, а именно: переподготовка учителей иностранных языков в школах и высших учебных заведениях, обеспечение качественного образования учителями иностранных языков в специализированных школах и роль национальных цифровых образовательных платформ.

**Ключевые слова:** коммуникативное обучение языку (CLT), предметно-ориентированное обучение (CBI), мультикультурализм, интегрированное обучение по предмету и языку (CLIL), цифровые образовательные инструменты и инклюзивные методы, компетентностный, предметно-ориентированный.

### Kirish

Zamonaviy chet tilini o'rganishdagi yondashuvlardan biri bu o'sha til bilan yaqindan tanishib chiqish va u tilni yaqindan o'rganishdir. Bugungi glaballashuv davrida ona tili bilan birgalikda qo'shimcha chet tilini bilish odamni har tomonlama shakllantiradi. Hamda odamni kommunikativ madaniyati oshishida ham muhim ro'l o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim jarayoni insonni yoki o'quvchini ochiq muloqot qilishga, mustaqil va keng fikrlashga, chet el vakillari bilan samarali aloqa o'rnatishga va turli kompetatsiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Shuning uchun ham turli xil zamonaviy chet el metodikasiga hos inovatsion texnologiyalar va mintaqalar madaniyatiga hos bo'lgan yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Xorijiy tillarni o'rganishdagi bunday metodikalar va yondashuvlar, ta'lim sifatini oshirishga, yangi g'oyalarni fikrlarni shakllantirmoqda. Bunday metodikalarni turli yo'llari mavjud. Masalan, raqamli axborotlar orqali, turli kompyuter o'yinlarini o'ynash orqali yoki tajribali chet el ustozlardan tahsil olib, ko'proq ochiq muloqot qilish orqali o'rganish. Bunday yondashuvlarning bari bolani o'z fikrini bemalol aytga, interaktiv faoliyatini oshirishga, multimediyalardan foydalangan holda nutqini, dunyo qarashini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi[7:5].

Hozirgi kundagi kommunikativ metod tilni grammatik qoidalardan ko'ra, real muloqot vositasi sifatida o'rgatishni ko'zlaydi. Bu yondashuv o'quvchini faol suhbatdosh, fikr bildiruvchi va nutq jarayonining ishtirokchisi sifatida shakllantiradi shuningdek ochiq muloqot kaifsentini oshiradi. Ona tili darslarida ham mazkur yondashuv matn ustida ishlash, munozara va amaliy nutq mashqlarida samarali natija beradi shu bilan birga ta'lim sifatini ozroq bo'lsada oshishiga sabab bo'ladi. Qolaversa til o'rganishni boshqa fanlar bilan birlashtirilgan holda o'tish ham, til o'rganish kaifsentini tezlashtirmoqda. Shu bilan birga o'quvchilarni ehtiyoj va talablarini inobatga olgan holda ish ko'rilmogda. Bu ham ta'lim sifatidagi o'zgarishga o'z hissasini qo'shadi.

Xorijiy tilini o'rganishdagi metodlar ko'p bo'lib bularga:


Kontentga asoslangan yo'riqnoma ya'ni qisqacha qilib aytganda CBI: bu til o'rganishni mavzu mazmunini o'rganish bilan birlashtiradi. Talab avo o'quvchilar maqsadli tilni fan, tarix yoki adabiyot kabi turli fanlarning mazmuni bilan shug'ullanish orqali o'rganadilar va vaqtlarini unumli o'tqazishini ta'minlaydi. Bu yondashuv o'quvchilarga ham til ko'nikmalarini, ham mazmuniy bilimlarni rivojlantirishga yordam beradi[3:6].

Mazmun va tilni birlashtirgan ta'lim ya'ni CLIL: bu til o'rganishni fan yoki geografiya kabi muayyan kontent sohasini o'rganish bilan birlashtiradi. U bir vaqtning o'zida tilni bilish va kontent bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib odamni o'ziga tezda jalb qiladi[3:6].

Shunday qilib bu metodlarga yana o'quvchilarni ehtiyojlarini o'rgangan holda ish olib boorish, ularga imkoni boricha yana qo'shimcha tillarni ham qo'shib osonlashtirilgan usulda va tajribali ustozlardan tahsil olishga tatbiq etishimiz zaruz. Til o'qitish va madaniyatlararo muloqot masalalari bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri demakdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bu borada qat'iy fikrlar bildirgan bo'lib, zamonaviy jamiyat taraqqiyoti bevosita til bilish, chet el tajribasidan xabardor bo'lish va global muloqotga kirishish qobiliyatiga bog'liq ekanini ta'kidlab kelmoqda. U "raqobatbardosh davlat qurish uchun yoshlarimiz kamida ikki chet tilini mukammal bilishlari shart"-deb alohida urg'u bermoqda va shunga davit etmoqda[8:4]. Bu fikr ta'lim jarayonida til o'rgatishning yangi bosqichga ko'tarilayotganining amaliy isboti hisoblanadi. Shundan ham ko'rishingiz mumkin ona tili va xorijiy tillarga qanday e'tibor qaratilayotganini.

O'zbekistondagi ta'lim darajasi sifati ham yildan yilga yaxshi tomonga o'zgarib bormoqda. Bunday talim 2019-2020-yildagi ta'limdan 2021-2022-yildagi ta'limda o'quvchilar soni anchagina ortgan[1:1]. Bu ko'rsatkich yildan yilga oz bo'lsada oshib borgan. O'zbekistondagi statistikasidan ham xorijiy yondashuvlar va metodlar ta'lim darajasida anchagina foyda keltirganini ko'rishimiz mumkin. Bu yondashuvlar mintaqalararo muloqot qilishda va ko'p biznes ishlarda, katta korxonalarni samarali yuritishda qo'l keladi. Hamda mintaqalararo munosabatlarni ham mustahkamlaydi, chunki ularni madaniyat va ona tilini o'rgangan bo'ladi, yaqindan tanishgan bo'ladi. Bu ham turli xil metod va yondashuvlar sharofati bilan. Demak bu yondashuvlar birgina davlatning ta'lim sifatini eams uning iqtisodiyotini ham oshiradi. Shuning uchun O'zbekiston kontekstida madaniyatlararo muloqot masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Statistika jadvali: Umumiy o'rta ta'limdagi o'quvchilar soni (ming kishida)**



## Xulosa

O'zbekiston ona tili va xorijiy tillar o'qitilishi tizimiga katta e'tibor qaratmoqda va tezkor modernizatsiyadan o'tmoqda, mamlakatning ta'lim siyosatida raqamli transformatsiya, xalqaro hamkorlik va yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni takidlamqda va uni rivojlantirmoqda. Bu yondashuvlar madaniyatlararo kompetatsiyani shakillantirish orqali til o'rganishni samaradorligini oshiradi va talaba yoki o'quvchini global dunyoga tayyorlab ham beradi. Bularni amalga oshirish uchun o'quvchining o'zida ham qiziqish va bir qancha qiyinchiliklarni boshidan o'tqazishga tayyor bo'lishi kerak. Xorijiy tillarni bilish darajasini ham joriy qilib CEFR va IELTS kabi milliy va xalqaro sersifikatlarni olish uchun imkon yaratdi va yoshlarning xorijiy tilni bilishi va bir qancha davlatlarda shu sersifikatlari orqali grand yutib o'qish yoki ishlashni ham osonlashtirdi. Bu pedagogik yondashuvlar davlatimiz va yoshlarga anchagina qulayliklar yaratdi.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning rasmiy chiqishlari – <https://president.uz>
2. Davlat statistika qo'mitasi. *Education in Uzbekistan / Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar (PDF)*. <https://www.stat.uz>
3. British Council Uzbekistan. *The CPD journeys of teachers of English in state schools in Uzbekistan (report, 2023)*. <https://www.britishconucil.uz>

4. CLIL va MINT bo'yicha O'zbekcha maqola — Tadjibaeva, D.A. *CLIL i MINT: zamonaviy kontsepsiya boshlang'ich ta'limda* (journal/pdf). <https://www.journal.fledu.uz>
5. Ilmiy maqolalar va konferensiya to'plamlari: *Foreign Language Teaching in Uzbekistan, Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar* (konferensiya materiallari). <https://www.researchgate.net>
6. Hukumat va vazirlik manbalari: *Ministry of Preschool and School Education / UzEdu (Maktab.uz platformasi haqida)*. <https://www.uzedu.uz>
7. Kun.uz — O'zbekistonning so'nggi qarorlari (2020). <https://www.kun.uz>
8. Inklyuziv ta'lim va xorijiy til o'qitish bo'yicha maqolalar. <https://www.aps.tsuos.uz>

